

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
asosida buxgalteriya hisobini yuritish va 2023-yil yakunlari
bo'yicha moliyaviy hisobotni tayyorlashga doir
A X B O R O T X A B A R I

2024- yil 6-fevral 03/43-2725-son

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi bilan birgalikda 2023-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etish bo'yicha quyidagilarni ma'lum qiladi.

“Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlarining buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga doir qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari asosida amalga oshiriladi, shuningdek, xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar **moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida (MHXS)** belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 24-fevraldagi 4611-sonli** “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, **aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar** toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar (keyingi o'rinlarda – **tashkilotlar**) **2021-yil 1-yanvardan** boshlab, MHXS asosida **buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi** va **2021-yil yakunlaridan** boshlab **moliyaviy hisobotni MHXS asosida** tayyorlashi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno ekanligi belgilangan.

Shuningdek, moliyaviy hisobotni **ixtiyoriy ravishda** MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tashkilotlar **buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)** bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan **ozod etiladi**.

Tashkilotlar **O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matni (09.12.2022-yil, r/r. 3400)** asosida buxgalteriya hisobini tashkil etadi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydi.

1-sonli **“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash”** MHXSga (**09.12.2022-yil, r/r.3400, 27-ilova**) muvofiq tashkilot MHXS bo'yicha **moliyaviy holat to'g'risidagi kirish hisobotini MHXSga o'tish sanasiga** tayyorlashi lozim va bu sana MHXSga muvofiq hisob yuritishning **boshlang'ich nuqtasi** hisoblanadi. Shuningdek, **MHXSga o'tish sanasi** tashkilot o'zining **MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotida** MHXSga muvofiq to'liq qiyoslanuvchan ma'lumotlarni taqdim qiladigan **eng oldingi davrning boshi** hisoblanadi.

MHXS asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning **to'liq to'plami** 1-son "**Moliyaviy hisobotni taqdim etish**" BHXSda (**09.12.2022-yil, r/r. 3400, 2-ilova**) belgilangan bo'lib, shuningdek, mazkur standartda moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan **umumiy talablar belgilangan**, unga ko'ra, tashkilot moliyaviy hisobotning (jumladan, qiyosiy ma'lumotni) to'liq to'plamini kamida **yillik asosda, minimal qiyosiy ma'lumot sifatida** barcha moliyaviy hisobotlardan **2 tadan** taqdim etishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2023-yil yakuni bo'yicha MHXSGa muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlaydigan tashkilotlarning MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot shakllari va tuzilishi 1-son "**Moliyaviy hisobotni taqdim etish**" BHXS (09.12.2022-yil, r/r. 3400, 2-ilova) asosida, ularning soliq hisoboti shakllari esa "**Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tgan yuridik shaxslarning soliqlarini hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha soliq hisoboti shakllari**" (20.10.2020-yil, r/r. 3221-1) **yillik asosida tayyorlanadi va taqdim etish sanasi 2024 -yilning 1-iyunidan kechiktirmasdan** taqdim etiladi.

Shu jumladan, **2023-yil 1-oktabrda** Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan, MHXSni birinchi marta qo'llayotgan yuridik shaxslar:

2023-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarini BHMS asosida taqdim etadi hamda 2024-yil 1-yanvar sanasida MHXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi kirish hisobotini tayyorlaydi va shu sanadan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etadi;

2024-yil yakunlari bo'yicha qiyosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi moliyaviy hisobotlarini va **2025-yil yakunlari bo'yicha birinchi to'liq to'plam moliyaviy hisobotlarini** taqdim etadi.

Ushbu tashkilotlarning solishtirma moliyaviy hisobotining **majburiy** auditorlik tekshiruvi auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik faoliyati to'g'risidagi **qonunchilik** va **Auditning xalqaro standartlarida** belgilangan tartibda o'tkaziladi.